

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ARXIV MANBALARI ASOSIDA FARG‘ONA VODIYSIDAGI NEFT SANOATINING RIVOJLANISH TARIXINI O‘RGANISH

Xusnida Ergasheva,

O‘zbekiston Milliy universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrasi tayanch doktoranti

E-mail: ergasheva.xusnida@bk.ru

Tarixni o‘rganishda moddiy va ma’naviy manbalardan foydalanish o‘z ahamiyatiga ega hisoblanadi. O‘rganilayotgan davrni arxivdagi ma’lumotlarda aks ettirilgan xujjatlar asosida o‘rganish tarixni xolis va haqqoniy yoritish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shunday ekan har bir tadqiqotchi o‘z mavzusi doirasida olib borayotgan ilmiy tadqiqoti jarayonida arxiv manbalariga tayanadi. Bu esa mavzuni to‘liq yoritilishiga asos bo‘ladi. Farg‘ona vodiysida neft sanoati tarixini o‘rganishda ham arxiv manbalarida keltirilgan ma’lumotlardan keng foydalanib mavzuni yoritib borilmoqda.

Farg‘ona vodiysida neft sanoati XIX asrning o‘rtalarida yuzaga kelgan. XX asrning boshlariga kelib esa, bu soha yanada rivojlanib bordi. 1904 yilning sentyabr oyiga kelib Farg‘ona viloyatida joylashgan Chimiyondagi neft quduqlaridan birida birinchi marta 278 metr chuqurlikdan neft fontani otilib chiqadi. Neft fontanining otilishi neftni qayta ishlash zavodini barpo qilinishi uchun sabab bo‘ladi. 1904 yilning o‘zida O‘zbekistonda birinchi marta Farg‘ona vodiysida neftni qayta ishlash zavodi Vannovskiy nomidagi temir yo‘l stantsiyasi yaqinida qurilish ishlari amalga oshirila boshlandi. Bu zavodning qurilish ishlari bilan temir yo‘l injeneri A.N.Kovalevskiy shug‘ullangan. Ushbu zavod asosan kerosin va yoqilg‘i mazuti ishlab chiqarishga mo‘ljallangan. 1906 yilga kelib qurilish ishlari yakunlangan va zavod ishga tushirilgan. Farg‘ona vodiysida tashkil qilingan neftni qayta ishlash zavodining qurilishi neft sanoatining rivojlanishiga shu bilan birgalikda vodiydagi sanoatning boshqa tarmoqlarini yuksalishiga ham turtki bo‘ldi. Shu munosabat bilan Farg‘ona vodiysiga chet el kapitallari kirib kela boshladi. Farg‘ona vodiysidagi Chimiyon neft koni 1907 yilga kelib Rossiya imperiyasi hududida neft bilan shug‘ullanadigan aka-uka Nobellar kompaniyasiga sotildi. Xalqaro neft sanoati tarixini o‘rgangan angliyalik tadqiqotchi professor Paul Stevens Aka-uka Nobellar kompaniyasining faoliyatini amerikalik milliarder Dj.D.Rokfeller egalik qilgan Standart Oyl tresti (Standard Oil Trust) faoliyati bilan qiyoslab, uni yevropa va Rossiya imperiyasi hududidagi raqobatchi deb baholaydi[1]. Aka-uka Nobellar



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

kompaniyasi jahon neft sanoati tarixida 1878 yilda “Zoroastr” (Zoroastr) deb nomlangan yuk tashish quvvati 242 tonna bo‘lgan dunyodagi birinchi neft tashuvchi tankerini qurib Azarbayjonning Baku shahridan Rossiyaning Saritsin (Volgograd) shahriga neft tashishni yo‘lga qo‘ygan[1]. Podsho hukumatining “erkatoy” tadbirkorlaridan bo‘lgan aka-uka Nobellar katta sarmoya, uzoq yillik tajriba va imkoniyatlar bilan Chimyon hududini o‘rganishni va shu bilan birga yangi neft konlarini qidirish ishlarini boshlab yubordi. Hudud o‘rganilishi natijasida 1909-1910 yillarda Chimyon yaqinidagi Yorqo‘tan neft koni topildi va ishga tushirildi. Ushbu izlanishlar natijasida Farg‘ona vodiysida neft sanoati yuksalib bordi. Neft sanoatini rivojlanishida Aka-uka Nobellar kompaniyasi o‘z ahamiyatiga ega hisoblanadi. Bunga yuqorida aytib o‘tilgan fikrlar asos bo‘ladi.

Farg‘ona viloyatida joylashgan neftni qayta ishlash zavodida qazib olingan neftdan benzin, mazut, kerosin ajratib olinardi, ammo mashina dvigatellarining yo‘qligi, benzinidan foydalanishga ehtiyoji bo‘lmaganligi sababli zavod hovlisida neftdan olingan benzin havoda yondirib yuborilardi. Ushbu zavod dastlabki yillarda yiliga atigi uch oy ishlar edi. Zavod ishga tushgan dastlabki vaqtda qazib olingan neftni oddiy ot aravalar yordami bilan zavodga keltirilardi. Keyinchalik ishni yanada osonlashtirish va ko‘proq natijaga erishish maqsadida Chimyon-Vannovski neft quvuri qurildi hamda neftni quvur orqali zavodga uzatiladigan bo‘ldi. Neftni qayta ishlashdan olingan kerosin mahsuloti mahalliy aholiga sotilardi hamda shu bilan birgalikda chetga jumladan, Afg‘oniston, O‘sh orqali Qashqarga eksport qilinardi [2].

XIX asr o‘rtalarida yorug‘lik beruvchi kerosinga bo‘lgan ehtiyojning yuzaga kelishi neft sanoatining rivojlanishiga asosiy sabab bo‘lgan bo‘lsa, XX asr boshlariga kelib bu jarayon sanoatning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib qoldi. Sanoat sohasida ayniqsa transportda xilma-xil dvigatellar qo‘llanila boshlandi. Bu dvigatellar soni ko‘payganligi sababli neftdan olinadigan mahsulotlarga benzin, dizel yoqilg‘isi, mazutlarga bo‘lgan talab ortib bordi.

1896 yilda dunyoda 4 tagina avtomobil mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1910 yilga kelib, shu avtomobillarning soni 10 milliondan oshib ketdi. Bu esa o‘z navbatida mashinasozlik, transport, aviatsiya va boshqa sanoat tarmoqlarining ko‘payganligidan dalolat beradi. Ushbu tarmoqlarning yuksalishi natijasida neft va neft mahsulotlariga, gazga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga sabab bo‘ldi. Buning natijasida neft va gaz mahsulotlarini qayta ishlash orqali olinadigan mahsulotlarning ham turlari nihoyatda rivojlanib ketdi [2.5-b.]. Avtomobil sanoati, ichki yonuv



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.


Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

dvigatelining keng qo‘llanilishi natijasida dizel va benzin yoqilg‘isiga ehtiyoj neftni qayta ishlash texnologiyasiga ham katta ta‘sir o‘tkazdi. Bu jarayonning jahonda qanday kechganligini o‘rgangan ispaniyalik tadqiqotchi Rafael Larraz “1907 yildan 1917 yilgacha AQShda 15 million Ford Model T avtomobili sotilgan va yig‘ish liniyasi xarajatlarining qisqarishi tufayli narxi 280 dollargacha tushib ketgan. Ushbu texnologik yangilik neftni qayta ishlash sanoatini tubdan o‘zgartirdi”[3] deb xulosa qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, jahonda ham neft sanoatini yuksalishi, neftdan olinadigan mahsulotlarga benzin, mazut, dizel yoqilg‘isiga talab ortib borayotganligidan dalolatdir.

XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi neft sanoatiga xorijiy kapital, tajriba, yangi texnologiyalarning kirib kelishi neft quduqlarini burg‘ulash ishlari orqali otilib chiqqan neftni nasoslar bilan katta-katta rezervuarlarga to‘ldirilib, maxsus quvurlar yordamida neftni qayta ishlash zavodlariga yuborilishi ushbu sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Arxiv ma‘lumotlari asosida tayyorlangan quyidagi diagrammada Chimiyondagi neft quduqlaridan neft qazib olish hajmi dinamikasi ko‘rsatib berildi[4].



Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 1905-1913 yillarda, ya‘ni birinchi jahon urushiga qadar neft qazib olish hajmi o‘sib borgan, lekin 1914-1918 yillarda esa quduqlar soni ortib borsada xom ashyo hajmi pastlab borgan. Bu holat bir nechta omillar bilan izohlanadi. Avvalo, birinchi jahon urushi sababli tashqi savdo yo‘llarining yopilib qolishi neft eksportini qisqartirib yubordi, ikkinchidan neft sanoatiga kiritiladigan

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

investitsiyalar hajmi keskin kamaydi, uchinchidan butun Rossiya imperiyasi hududida mazkur sanoat sohasida mehnat qilib turgan malakali ishchilarning urushga jalb qilinishi qazib olinayotgan neft hajmiga o'z ta'sirini o'tkazdi, to'rtinchidan temir yo'l va dengiz transporti va logistikasining front uchun jalb qilinishi natijasida katta hajmdagi mahsulot yirik neft sanoati markazlari hisoblangan Baku, Grozniy shaharlarida turib qoldi[5,6]. Rossiyada amalga oshirilgan davlat to'ntarishi ham aynan mana shu davrga to'g'ri kelishi neft sanoati ko'rsatkichlarining yanada pasayishiga sabab bo'ldi.

Yuqoridagi omillarda ko'rsatilganidek, Rossiya imperiyasi hududidagi neft sanoati birinchi jahon urushi yillarida pasaygan bir vaqtda jahonda yetakchi o'rinda bo'lgan AQSh neft sanoati rivojlanib bordi. AQSh jahon urushi natijasida kelib chiqqan neft maxsulotlariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishidan unumli foydalanib 1914 yilga nisbatan qiyoslaganda 1917 yilda neft qazib olish hajmini yiliga 42% ga ko'targan. Ayni paytda jahonda neft maxsulotlarining narhi ham 1914 yil va 1917 yillar nisbatida taqqoslanganda moylash maxsulotlari 26,8%, benzin 44,8%, kerosin 50 % ga ortgan[7]. Birinchi jahon urushiga qadar Rossiya imperiyasi yiliga 9,2 mln. tonna neft qazib olib, jahon neft bozorida AQShdan keyingi ikkinchi o'rinda turgan[8.13-bet]. O'z o'rnida Rossiya imperiyasi hukumati 1915 yil may oyining oxirida urush sharoitida mamlakat sanoat sohasini mudofaa uchun muvofiqlashtirish va mobilizatsiya qilish maqsadida Markaziy hamda mahalliy harbiy-sanoat qo'mitalarini tashkil etadi. MHSQ (ИВПК) tomonidan "sanoat korxonalarini kerakli maxsulotlar bilan ta'minlash, shuningdek sanoat yuklarini va yoqilg'i tashish masalalariga alohida e'tibor qaratish tavsiya etildi"[8. 60-bet]. Mazkur qo'mitaga Chimiyondagi neft sanoati mulkdori bo'lgan aka-uka Nobellar kompaniyasi vakili R.Nobel ham a'zo bo'lgan. Imperiya hukumatining sa'i-harakatlariga qaramay Rossiya birinchi jahon urushi yakunida neft sanoati sohasidagi raqobatda AQShga mag'lub bo'ldi. Bu mag'lubiyat Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan Farg'ona vodiysidagi neft sanoatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shuning uchun neft qazib olish va qayta ishlash jarayonlari 1905-1918 yillarga nisbatan taqqoslanganda kamayib borganligini yuqoridagi diagramma orqali ko'rishimiz mumkin. Farg'ona vodiysida 1917-1924 yillarda ham neft sanoati rivojlanmadi. 1925 yildan boshlab esa bu sohada o'zgarish yuzaga keladi. Soha rivojlantirila boshlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Farg'ona vodiysida neft qazib olishning sanoat darajasida yuksalib borishi XX asrning boshlarida yuzaga kelgan. XIX asrning o'rtalarida neft buloqlaridan neftni olish, undan foydalanish mahalliy hunarmand,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilgan, lekin texnika yordamida qazib olish sanoat darajasida rivojlanishi Farg'ona vodiysida neftni qayta ishlash zavodining qurilishi, bu sohaga xorijiy kapitalni kiritilishi ushbu tarmoqni sekin-astalik bilan rivojlantirib borilishiga sabab bo'lgan. Neftni qayta ishlash jarayoni natijasida sanoatning boshqa tarmoqlari ham yuksalib borganligi o'z ahamiyatiga ega. Ayniqsa, transport, mashinasozlik, aviatsiya sohalarining rivojlanishi neft sanoatining yuksalishiga, neftdan olinadigan mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borishiga sabab bo'ldi. Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlardan keng foydalanildi. Buning natijasida mavzu mazmunini to'liq va batafsil yoritish imkoniyati yuzaga keldi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. Stevens P. History of the International Oil Industry. In: Dannreuther R., Ostrowski W. (eds) Global Resources. Palgrave Macmillan, London. https://doi.org/10.1057/9781137349149_2. https://link.springer.com/chapter/10.1057/9781137349149_2 (Murojaat sanasi: 12.02.2022)
2. Muhidov A.R., Tojiev T.T. O'zbekistonning qora oltini. – T. Fan, 1972. 5 b.
3. Larraz R. A Brief History of Oil Refining. Substantia 5(2): 129-152. doi:10.36253/Substantia-1191. URL: https://www.researchgate.net/publication/354537125_Brief_history_of_oil_refining (Murojaat sanasi: 12.02.2022)
4. O'zbekiston Respublikasi milliy davlat arxivi I-27-fond, 1-ro'yxat, 1119-ish, 67-v.
5. Сулумов З.Х. Нефтяная промышленность Грозного в период Первой мировой войны. Каспийский регион: политика, экономика, культура № 1 (50). 2017 г. URL: https://www.elibrary.az/docs/JURNAL/jrn2017_387.pdf (Murojaat sanasi: 12.02.2022)
6. Караваева И. Российская промышленная политика накануне и в годы первой мировой войны // Вестник Института экономики Российской академии наук. 2007. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rossiyskaya-promyshlennaya-politika-nakanune-i-v-gody-pervoy-mirovoy-voyny> (Murojaat sanasi: 12.02.2022)
7. Сапронов И. М. Значение Первой мировой войны для развития нефтяной индустрии Великобритании и США / И. М. Сапронов // Труды кафедры истории Нового и новейшего времени. – 2013. – № 11. – С. 144-152. URL:



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

https://www.elibrary.ru/download/elibrary_21087503_90613229.pdf (Murojaat sanasi: 12.02.2022)

8. Первая мировая война: влияние на экономику России и мира: Коллективная монография. — М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2016. — 200 с. URL:

<https://www.econ.msu.ru/sys/raw.php?o=32541&p=attachment> (Murojaat sanasi: 12.02.2022)

9. Arxiv materialida qazib olingan neft hajmi Rossiya Imperiyasi Moliya vazirligi savdo va manufaktura departamenti tomonidan 1899 yil 1 iyunda joriy etilgan “Og‘irliklar va o‘lchovlar to‘g‘risidagi Nizom” asosida “pud” (16,38 kg.) og‘irlik o‘lchov birligida ko‘rsatilgan. Diagrammada muallif tomonidan neft hajmini shu hujjat asosida kilogramga aylantirib ham ko‘rsatilgan.

